MAKTAB INFORMATIKA DARSLIGIDAGI DASTURLASH ASOSLARI BO‘LIMINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O‘QITISH

Badalov Azamat Obil o‘g‘li - Guliston davlat universiteti tayanch doktaranti
E-mail: azamatbadalov92@gmail.com

Bugungi kunda yurtimizda har bir sohada axborot texnologiyalarini qo‘llash, ko‘plab sohalarni raqamlashtirish va avtomatlashtirish kabi masalalarga juda katta e’tibor berilmoqda.Yurtimizda har bir sohada axborot texnologiyalarini qo‘llash, ko‘plab sohalarni raqamlashtirish va avtomatlashtirish kabi masalalarga ham katta e’tibor berilmoqda.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida darsliklarni yangilash dasturini amalga oshirish uchun davlat budjetidan yuqori miqdora mablag‘ ajratilishi, yangi maktablar qurilishi, xususiy maktablarni ko‘paytirish, ta’lim sifatini oshirishni nazarda tutuvchi milliy dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish, maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish, xalq ta’limi tizimi tuman bo‘limlari faoliyatini to‘liq raqamlashtirish hisobiga optimallashtirish kabi maqsadlarning qo‘yilishi xalq ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha dolzarb masalalar mavjudligini ko‘rsatib beradi. O‘rta maktablarda o‘qitilayotgan fanlar ichida Informatika va axborot texnologiyalari fani alohida ahamiyatga ega. Hozirgi axborot asrida yoshlarni axborot va u bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar: uni qabul qilish, uzatish, saqlash, himoyalash, axborot xavfsizligini ta’minlash, axborot hujumlarini bartaraf etish kabi jarayonlarga tayyorlash zamonaviy kadrlar tayyorlashning asoslaridan biri hisoblanadi.

Informatika va axborot texnologiyalari fanidan har bir sinf bo‘yicha quyidagi tartibda o‘qitishi belgilangan (1-jadval).

1-jadval

Informatika va axborot texnologiyalari fani uchun sinflar kesimida ajratilgan haftalik va yillik yuklamalar

Sinflar	1	5	6	7	8	9	10	11
Haftalik o‘quv yuklama	1	1	1	1	1	2	2	2
Yillik o‘quv yuklama	34	34	34	34	34	68	68	68

Ko‘rib turganimizdek, informatika va axborot texnologiyalari fanining haftalik yuklamasi mazkur sinf uchun beriladigan haftalik jami yuklamaga nisbatan 4-8% ni tashkil qiladi. Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, informatika va axborot texnologiyalari fanini maktabda o‘qitishda ayrim yondashuv va tamoyillarni qayta ko‘rib chiqish, zamon talabiga moslashtirish zarur.Maktabda informatika va axborot texnologiyalari

fanini o'qitishda dasturlash asoslari bo'limi quyidagi holatda taqsimlangan (2-jadvalga qarang):

2-jadval

Sinf	O'qitiladigan dasturlash tili	Yillik yuklama	Dasturlash mavzulariga ajratilgan yuklama
1-sinf	Krish	34	10
5-sinf	Scratch	34	7
6-sinf	Scratch	34	10
7-sinf	Malumotlar bazasidan maqsadli foydalanish	34	12
8- sinf	Kompyuter tarmoqlaridan maqsadli foydalanish	34	12
9-sinf	Web sayt yaratish	68	18
10-sinf	Web uchun dasturlash	68	18
11-sinf	Web uchun dasturlash	68	18

Ushbu jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, yangi tahrirdagi informatika va axborot texnologiyalari darsliklarida yuqori sinflar uchun dasturlashni o'qitishga nisbatan e'tibor kamroq.

Dasturlashni o'quvchilarga o'rgatishda mavzularning tizimliligi, sinfdan sinfga o'tishda yangi mavzular o'tilgan mavzularning mantiqiy davomi bo'lishi muhim hisoblanadi.O'quvchilarga yoshligidan dasturlash asoslarini tizimli o'rgatib borilsa, kelajakda qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'i nazar axborot texnologiyalarini o'z sohasida qo'llay oladigan shaxs bo'lib yetishadi.Dasturlash asoslari mavzulari asosan informatika va va axborot texnologiyalari sohasiga mo'ljallangan auditoriyada o'qitiladi.

O'quvchi dasturlash asoslari bo'limini o'rganish jarayonida bir muncha qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Ko'p holatda o'tilayotgan mavzularning mohiyati, maqsadi, nima uchun o'rganishi kerakligi tushuntirilmaydi.Misol uchun Scratch dastur kompilyatori o'tilayotganda uning nima uchun kerakligi, qanaqa ko'rinishdagi dasturlar tuzish mumkinligi, ushbu dasturlash tili nimalarga qodirligi ko'rsatib berilsa, o'quvchida qiziqish ortib o'rganishi osonroq bo'ladi.

Jamiyatda faoliyat olib borilayotgan har bir soha axborot texnologiyalariga bevosita bog'liq bo'lib qolmoqda va bu bog'liqlik yillar o'tgan sari rivojlanib mustahkamlanib boraveradi. Bu esa o'z navbatida axborot texnologiyalari sohasidagi bilimlarga ega bo'lgan yoshlarni tayyorlash zarurligini bildiradi. Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar tarkibida axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish, yoshlarni shu sohaga qiziqtirish siyosati olib borilayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son.

2. Kasimov F.F., Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali. https://doi.org/10.53885/edinres. 2022.9.09.033. 2022 yil № 9.

3. Badalov A. Theoretical basis of the methodology of teaching fundamentals of programming in the school it classroom. O‘zbekiston Milliy universiteti xabarlari, 2023, [1/12/2], ISSN 2181-7324. 76-78.

4. Badalov A.O. Maktab informatika darsligidagi dasturlash asoslari kursini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasi // Natijaga yo‘naltirilgan uzluksiz ta’limni joriy etish tendensiyalari xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami.Toshkent 2024-yil 25-mart, 368 bet.

5. Badalov A.O. Maktab informatika va axborot texnologiyalari darsligidagi dasturlash asoslari bo‘limining o‘rni // “Sun’iy intellekt nazariyasi va amaliyoti: tajribalar, muammolar va istiqbollar” mavzusiga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy anjumani. Toshkent. 21.05.2024 yil.